

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi**

**Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası**



«Geografiya - nazariyadan amaliyotga»

*Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2024-yil 25-noyabr*

«География – от теории к практике»

*Международная научно-практическая конференция
25 ноября 2024 года*

«Geography - from theory to practice»

*International scientific and practical conference
November 25, 2024*

“Geografiya – nazariyadan amaliyotga” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Qo‘qon: Qo‘qon davlat pedagogika instituti, 2024. -432 bet.

Mazkur to‘plamda Qo‘qon davlat pedagogika institutida 2024 yil 25-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan **“Geografiya – nazariyadan amaliyotga”** mavzusida tashkil etilgan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy maqola materiallari o‘rin olgan. Konferensiya to‘plamida “Tabiiy resurslar, biologik xilma-xillikni saqlash va atrof-muhitni boshqarishda geografik nazariyalarni qo‘llash”, “Barqaror rivojlanish. Iqlim o‘zgarishiga moslashish va ularni yumshatish strategiyalari amaliyoti va siyosati”, “Mintaqaviy rivojlanish va hududiy rejalashtirish. Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari va ularning geografik oqibatlarini”, “GIS, masofaviy zondlash va fazoviy tahlil sohasidagi yutuqlar” hamda “Zamonaviy geografiya ta’limi va uni o‘qitish usullari” masalalarini qamrab olgan.

Mazkur to‘plam geograf, ekolog va iqtisodchi mutaxassislar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar hamda geografiya faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamda berilgan maqolalarning ilmiyligi, mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

O.Q. Tobirov	g.f.f.d. (PhD)
V.Yu. Isaqov	b.f.d. professor
O.M. Qo'ziboyeva	g.f.d. (DSc), v.b. professor
D.G'. Mo'minov	g.f.n. dotsent
L.M. Abdunazarov	p.f.f.d. (PhD), dotsent
A.M. Jabborov	b.f.n. dotsent
X.O. Abdinazarova	g.f.f.d. (PhD), v.b. dotsent
A.N. Xoshimov	b.f.f.d. (PhD), katta o'qituvchi
B.O. Omonov	p.f.f.d. (PhD), o'qituvchi
D.B. Mamayusupova	i.f.f.d. (PhD) katta o'qituvchi
M.U. Kurbonov	v.b. dotsent
G'.X. Berdiyev	Katta o'qituvchi
F.S. Meliboyeva	Katta o'qituvchi
H.Y. Nazarov	Katta o'qituvchi
O.A. Qo'chqorov	assistent o'qituvchi
Sh.E. Otajonov	Assistent o'qituvchi
D.H. Yuldasheva	Assistent-o'qituvchi
M.S. Meliyev	Stajyor o'qituvchi

Maqolalarning umumiy tahriri g.f.f.d. (PhD), O.Q. Tobirov tomonidan amalga oshirilgan.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, 2024-yil 25-noyabr.

MUNDARIJA

Mualliflar	Maqola mavzusi	Sahifa
<u>1-SHO'BA. TABIIY RESURLAR, BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH VA ATROF-MUHITNI BOSHQARISHDA GEOGRAFIK NAZARIYALARNI QO'LLASH</u>		
Abdunazarov Lutfillo Mamanovich Qambarova Shoiraxon Asqarovna Jo'raboyev Abdumalik Doniyorjon o'g'li	Beruniy asarlarining manba sifatidagi ahamiyati	12
Abdurayimova Oytula Boltatosh qizi	Sobirsoy suv omborining atrof – muhitga ta'siri	15
Akbarov G'olibjon Alisherovich Dehqonova Mohinur Davlatjon qizi Hamdamjonova Jasmina Hamzali qizi	Farg'ona viloyati qumli landshaftlari o'simliklari va ularning xususiyatlari	18
Alimkulov Nusratulla Rahmonqulovich Xolmurzaev Jumanazar	Jizzax viloyati ichki suvlarini hududiylik va davriylik qonuniyati asosida baholash	22
Allayorov Ruslan Xaykal o'g'li	Janubi-g'arbiy Hisorning biologik xilma-xilligi va ularni muhofaza qilish choralari	26
Eshquuvatov Bekzod Beqqulovich Bekqulov Ibrohim Yunus o'g'li Sharipova Mexribon Zafar qizi Ikromova Azizaxon Ikrom qizi	Nurota tog'lari tog'oldi tekisliklari landshaft komplekslari	31
Jumayev Turob Djumayevich Qurbonov Shuxrat Bekmetovich	O'zbekiston cho'l hududlari geografiyasi	34
Meliboyeva Feruzaxon Solijonovna Raxmonaliyev Muhammadali Ilhomjon o'g'li	Avstraliya materigi geografik o'rni, o'rganish tarixi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari va relyefi	38
Mirzaxmedov I.K. Maxmudova M.M.	Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish (Dang'ara tumani misolida)	43
Mo'minov Doniyor G'ulomovich Ochilboyev Bahodir	O'zbekistonda yerlar degradatsiyasi va ularning yechimlari to'g'risida bazi masalalar.	46
Xolmurodov Shakarbek Abdug'aniyevich Boymuratov Sami Mamurovich	Arid mintaqa landshaftlarining antropogen ta'sirga barqarorligini baholash	52
Yusupov Ibragim Mirsaydaliyevich	Tuproqning minerallashtirishligi aniqlash usullari	56
Исаков Валижон Юнусович Юсупова Мохидил Абдумуталиповна Акбаров Голибжон Алишерович	Некоторые свойства песчаных почв Ферганской долины	60
Мамажонов Мўминжон Дехқонов Б.М.	Андижон вилояти иқлими ва ҳудудини агроиқлимий районлаштириш масалалари	63
Пирназаров Равшан Топволдиевич	Кулама тўғонлар барқарорлигини баҳолашнинг генетик асослари	69
Реймов Полат Расбергенович Султашова Оралхан Генжебаевна Худайбергенов Яхшимурад Гулимбаевич Канназаров Зафаржан Уразбаевич	Результаты совместной японско-узбекской экспедиции на территории приаралья	73
Самиев Калыбек Тартақкушович	Основные вопросы организации	

6.Eshkuvvatov B.B., Yarashev K.S. Scientific and Practical Measures of Analysis of Plains and Landscapes // Journal Natural and Science. Volume 18, Number 3. USA. March 25, 2020. ISSN: 1545-0740; -P.60-62.

7.Краткая географическая энциклопедия, Т.3. –М.: 1962. -580 с.

O‘ZBEKISTON CHO‘L HUDUDLARI GEOGRAFIYASI

T.D. Jumayev¹, Sh.B. Qurbonov²

Аннотация. *Maqolada O‘zbekiston cho‘l hududlarining o‘ziga xos geografik xususiyatlari, tabiati, maydoni, aholisi, xo‘jaligi kabi jihatlarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratilgan.*

Калит so‘zlar: *cho‘l, cho‘l hududlari, mintaq, ichki kontinental, aholi, xo‘jalik, geografik uchlik.*

ГЕОГРАФИЯ ПУСТЫННЫХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В статье большое внимание уделено изучению географических особенностей, природы, территории, населения и экономики пустынных регионов Узбекистана.*

Ключевые слова: *пустыня, пустынные территории, регион, внутренний континент, население, экономика, географическая троица.*

GEOGRAPHY OF DESERT REGIONS OF UZBEKISTAN

Abstract. *The article pays much attention to the study of the geographical features, nature, territory, population and economy of the desert regions of Uzbekistan.*

Key words: *desert, desert territory, region, inner continent, population, economy, geographical trinity*

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda tabiati, aholisi, xo‘jaligi, infratuzilmasining geografik o‘ziga xosligi bilan bir-biridan tubdan farq qiladigan, o‘zaro bog‘liq va integral yo‘nalishda mamlakatning yagona tabiat-iqtisodiy-ijtimoiy makonini va kompleksini tashkil etadigan cho‘l, sug‘oriladigan tekislik, tog‘oldi-tog‘ geografik uchligi (makro mintaqalari) salohiyati, imkoniyati, afzalliklaridan alohida va o‘zaro bog‘liqlikda samarali foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ularning har bittasi milliy iqtisodiyot kompleksida o‘ziga xos ixtisoslashgan o‘rinni egallaydi va tegishli vazifani bajaradi. O‘tmishda va hozirgi vaqtda ham ushbu xususiyatlar nafaqat boshqarish amaliyotida yetarli darajada hisobga olinmayotir, balki geografik jihatdan ham deyarli tadqiq etilmagan.

Shu munosabat bilan ushbu maqolada geografik uchlik yirik qismi hisoblangan mamlakatning asosiy geografik omili – ichki kontinental cho‘l kenglik zonasi xususiyatlariga va ularning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta’siri aniqlangan.

O‘zbekiston hududida ekstremal, inson yashashi va faoliyati uchun noqulay qurg‘oqchil cho‘l zonasi xukumronlik qiladi: uning ulushiga mamlakat hududining 70 %, aholisining atigi 1-2 % to‘g‘ri keladi. Amaliyotda cho‘llar mamlakati hisoblanadi. Unda yaylov chorvachiligi hukumronlik mavqega ega. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ming yillar davomida cho‘llardan (taxminan 2/3 qismi) va tog‘ etaklari – tog‘ oldidan (3/5 qismi) tog‘ daryolari suvlaridan foydalanish asosida o‘zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan, gullab yashnagan voha va vodiylardan tarkib topgan, yuqori darajada o‘zlashtirilgan, aholi yashash punktlari, xo‘jalik, infratuzilma obyektlari bilan yetarli darajada to‘ldirilgan, ayni vaqtda ko‘p darajada ekologik

¹ **Jumayev Turob Djumayevich** - Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, faxriy professori, geografiya fanlari doktori, professor.

² **Qurbonov Shuxrat Bekmetovich** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, geografiya kafedrası dotsenti, g.f.f.d.

noqulay va kuchli buzilgan sug'oriladigan (antropogen) tekislik zonasi mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egallaydi. Uning ulushiga mamlakat hududining atigi 10 %, lekin aholisi va yalpi ichki mahsulotining deyarli 90 % to'g'ri keladi. Uchinchi uchlik tog' zonasi mamlakatda quyidagi ulushga ega. Hududi - 21,4 %, aholisi 10-13 %, sanoat mahsuloti 15-16 %, qishloq xo'jalik mahsuloti 12-13 %, foydali qazilmalar, rekreatsiya, va boshqa resurslarning katta qismi mos keladi. Tog'lar O'zbekistonning asosiy ekologik-iqtisodiy hududi bo'lib, yaqqol ifodalangan muhit shakllantiruvchi va muhit nazorati funksiyalariga egalik qiladi [1;3].

Geografik uchlikning har bittasi nafaqat tabiat tizimi (kompleksi), balki bir vaqtning o'zida chuqur antropogen ta'sir oqibatida turli darajada o'zlashtirilgan va o'zgartirilgan tabiat-ekologik – ijtimoiy-iqtisodiy tizim (kompleksi) ham hisoblanadi. Ular yuqorida ko'rsatilgan tabiat qonunlariga buysunadi, inson hayoti va faoliyati esa o'zaro moslashish qonuniga muvofiq mazkur o'zgarish va xususiyatlarga moslashadi. Bunda ular bir tomondan o'zlarining tabiat xususiyatlarini saqlab qoladi, boshqa tomondan ularga madaniy o'simliklar, tuproqning o'zgartirilgan xossalari, yer usti va yer osti suvlari va boshqa ko'plab yangi "antropogen" mazmun va xususiyatlarini beradi.

Bular xususiy integral komplekslar bo'lib, butun O'zbekiston hududida ular birgalikda to'htovsiz o'zaro aloqa va o'zaro ta'sir oqibatida to'liq yaxlit tabiat-ekologik-iqtisodiy-ijtimoiy integral kompleksga aylangan.

Cho'l tekislik. Ular O'zbekistonning barcha tekislik qismini (sug'oriladigan zonadan tashqari) – Ustyurt platosi, Amudaryo deltasi, Qizilqum, Qoraqum (Amudaryoning chap qirg'og'idagi cho'llar), Mirzacho'l, Dalvarzin, Qarshi cho'llari, Markaziy Farg'ona, Kattaqum (Surxondaryo viloyati) cho'llarini egallaydi. O'zbekiston cho'llari ichki kontinental cho'llar kenglik zonasida joylashgan murakkab ekotizimlar sifatida geografik o'rining umumiyligiga cho'llar bog'liq holda hududiy yaxlitligi va ichki birligi, geografik kenglik bo'yicha shimol va janubiy qismlarining sezilarli farqlarga egaligi, o'zlashtirish darajasi va rivojlanish tarixi, xo'jaligi ixtisoslashishining o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi.

Ma'muriy-hududiy bo'linish jihatidan cho'llarning asosiy (96,2 %) Qoraqalpog'iston Respublikasi (51,7 %), Navoiy (32,4 %), Buxoro (12,4 %) viloyatlariga to'g'ri keladi. O'zbekiston cho'llarining umumiy maydoni 314,3 ming kv.km. tashkil qiladi. Cho'llarning geografik sharoiti nafaqat dehqonchilik imkoniyatlarini, balki cho'llarni o'zlashtirishga ham katta cheklovlar qo'yadi. Cheklovlar asosan o'ta qurg'oqchilik (ekstra arid) va namlik yetishmasligi va uni faqat su'niy sug'orish orqali bartaraf etish mumkinligi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda, cho'llarimiz biogenining xilma-xilligi va mahsuldorligining yuqoriligi bo'yicha alohida ajralib turadi, bu borada shubhasiz dunyo cho'llarining tengi yo'q "jannati" hisoblanadi, xilma-xil biona, saksavul o'rmonlari buni isbotlaydi. Ular geografik kenglik bo'yicha 8;3⁰ ga (930 km) cho'zilgan bo'lib, mazkur masofada shimoldan janubga tamon issiqlik sharoiti va namlik tartibida hamda barcha tabiat komponentlariga sezilarli zonal o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Quyosh radiatsiyasi va issiqlikning ko'pligi sharoitida namlikning mutloq kamligi va yetishmasligi cho'llardan foydalanish va ularni o'zlashtirishning katta to'sig'i hisoblanadi. Bu yerda yillik yog'in miqdori odatda 200 mmdan oshmaydi (namlik koeffitsienti 0,1). Sovuqsiz kunlarning davomiyligi janubda (Termiz) 200 kun bo'lsa, shimolda (Ustyurt platosi) 160 sutkaga teng (farq 40 kun), tegishli minimal harorat -20⁰ va -40⁰ (farq 2 marta), eng sovuq oy yanvarda ko'rsatkichlar +2-3⁰ va -9⁰S (farq 11-12⁰S), issiqlik resurslarining ko'rsatkichi – musbat haroratlar yig'indisi Janubda 6600⁰ bo'lsa, shimolda 4000⁰S teng (farq 2600⁰S yoki 16,5%). Cho'llarning janubiy qismi (40⁰ shimoliy kenglikdan janubda) subtropik, shimoliy qismi (40⁰ sh.k.dan shimolda) mo'tadil mintaqaga joylashgan (22).

Cho'l hududlar qumli, sho'rxokli, soz tuproqli, toshloq va gipsli (shag'al) cho'llardan tarkib topgan. Cho'l ekotizimlari boy, rang-barang flora va fauna bilan ajralib turadi. Qizilqumda o'simliklarning 937 turi, umurtqali hayvonlarning 500 dan ko'p turi va turkumi, umurtqasizlarning 950 turi mavjud [2]. Masalan, cho'llar bahorda yashil o'tlarning qalin gilami, yorqin rangli va efemiroidlar bilan qoplanadi. Ularning ko'plari bizning bog'larimiz va

hiyobonlarimizni bezab turadi. Sariq, oq, qizil lolalar, binafsharang va moviy gulsapsarlar, yovvoyi gladiolus va piyozlar, qizg'oldoqlar – bu o'simliklarning barchasi allaqachon madaniylashtirilgan, bog' va hiyobonlarimizni bezab turadi, lekin ularning vatani cho'llardir. Shuningdek, ko'plab yovvoyi gullar inson yetishtirgan noziknavlardan chiroylilikda qolishmaydi.

Cho'l tabiiy o'simliklari qurg'oqchil va issiq sharoitlarga yetarli darajada moslashgan bo'lib, mavjudlikning tegishli shakl va hayotiy maromlariga egalik qiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston cho'llari uchun bahorda va nam kuz fasllarida o'sadigan (vegetatsiya) efemer va efemeroidlar xosdir. Butalar va chalabutalar yoz faslida vegetatsiyani to'xtatadi, barglarni yo'qotadi, harorat pasaygan va havo namligi oshgan kuz faslida hosil beradi.

Cho'l zonasining o'rta va Janubiy qismlarida o'simliklar vegetatsiyaning ikkita qishgi va yozgi davri imkoniyatlari mavjud. Issiqlikning ko'p miqdori va yozgi davrda vegetatsiyaning katta davomiyligi sug'orish asosida xilma-xil issiqsevar o'simliklarni yetishtirishga imkon beradi.

Shunday qilib, yillik yog'in miqdorining kamligi va harorati darajasining yuqoriligi bilan alohida ajralib turadi. Yozda barcha yovvoyi o'simliklar vegetatsiyani mutloq to'xtatadi (efemerlar) yoki navbatdagi faslgacha vegetatsiyani to'xtatib turadi (efemeroidlar). Shu sababdan yozgi yarim yillik namlikning mavjud tabiiy sharoitida vegetatsiya davri hisoblanmaydi.

Cho'llarning ko'p qismidan yaylov sifatida foydalanish ustun turadi. Cho'l-da chorva boqish o'simlik, tuproq, qumli cho'llarda esa relyefning kuchli darajada o'zgarishiga olib kelgan. Ko'chib yuradigan qumlar tuproq-o'simlik qoplamining kuchli yemirilishi oqibati hisoblanadi. Cho'l landshaftlari inson faoliyati ta'siriga eng beqaror va chidamsizdir. Cho'llarni o'zlashtirish asosida barpo etilgan sug'oriladigan tekisliklar-voha va vodiylarga ikkilamchi sho'rlanish, botqoqlanish, eroziya xosdir.

Cho'l landshaftlari hozirgi mavjud holat va mazmunda yaxlit hududiy tabiat va ijtimoiy soha iqtisodiyot tuzilmalari hisoblanadi. Ular inson faoliyati ta'sirida shakllangan bo'lib, bir vaqtning o'zida tabiat xususiyatini saqlab qolgan, tabiat qonunlariga bo'ysunadi, madaniy o'simliklar, uy hayvonlari, o'zgartirilgan tuproq xossalari, yer osti va yer usti suvlari rejimining (tartibining) o'zgarishi va boshqalarda "antropogen" mazmunga va shaklga ega bo'ladi. "Cho'l-jamiyat" o'zaro aloqalari tizimida jamiyat eng faol tomon hisoblanadi. Cho'l resurslaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish jarayonida inson modda va energiya ayriboshlashda ishtirok etib, cho'l muhitini muqarrar o'zgartiradi, uni tabiat-ijtimoiy soha –iqtisodiyot tuzilmasiga aylantiradi.

O'zbekistonning bepayon cho'llari qorako'l qo'ylari va tuyachilikni rivojlantirishning asosiy bazasi bo'lib, bu yerda mamlakatimiz yaylovlarining 80 % joylashgan. Cho'l yaylovlarining mahsuldorligi ancha past bo'lib, o'rtacha 2-3 s/ga ni tashkil etadi.

Yaylovlar mahsuldorligi asosan namlik bilan belgilanadi. Qizilqum cho'llarining shimolida (Ustyurt) noqulay namlik sharoitlarining takrorlanishi juda yuqori. Deyarli 10 yildan 8 yili (80 %) janub tomonga siljish yo'nalishida yaylov o'simliklarining namlik bilan ta'minlanishi darajasi oshib boradi.

Cho'l yaylov o'simliklari vegetatsiyaning optimal sharoitlari bahor faslida issiqlik va namlik nisbatlarining o'zaro mos kelishiga bog'liq bo'ladi: $+5^0\text{ S}$ dan yuqori havo harorati yig'indisining $400-500^0\text{ S}$ bo'lishi yaylov o'simliklarining o'sishi uchun qulay sharoit yaratadi. Mazkur samarali havo haroratidan yuqori yoki past darajalarda bahorgi issiqlik rejimi noqulay hisoblanadi.

Cho'l yaylov xo'jaligida qurg'oqchilikka qarshi kurash tadbirlari quyidagi uchta yo'nalishda amalga oshiriladi: 1) qurg'oqchilikni chidamli o'simliklar seleksiyasi natijalarini qo'llashga asoslangan fitomelioratsiya tadbirlarini keng miqyosda amalga oshirish, ozuqa ishlab chiqarishni sug'orishsiz va artezian sug'orishi asosida ishlab chiqish;

2) yovvoyi cho'l ozuqa o'simliklari urug'larini ishlab chiqishni tashkil etish; 3) qorako'l qo'ylarini yaylovda boqishning ilmiy-amaliy asoslangan tizimini joriy etish;

Cho'llar imkoniyatlaridan foydalanish va resurslarini o'zlashtirishning barcha yo'nalishlari doimo suv ta'minotiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda suv muammosi hamisha asosiy muammo hisoblanadi. Masalan, cho'l yaylovlarida qorako'l qo'ylarini boqishni o'rganishdan oldin quduqlarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash malakasiga ega bo'lish talab qilinadi. Cho'llarda asosiy suv iste'molchilari to'rtta: sug'orish, yaylov chorvachiligi, sanoat aholi punktlari suv ta'minoti.

Cho'l sharoitida suv ta'minoti muammolarini hal etishda quyidagi manbalardan foydalanish mumkin: 1) atmosfera yog'inlari; 2) yer osti suv resurslari; 3) quduqlar qazish va ularni ekspluatatsiya qilish; 4) yangi zamonaviy texnologiyalar asosida suv manbalarini barpo etish.

Yer sharining ko'plab cho'llarida atmosfera yog'inlari maxsus tayyorlangan idishlarda va tabiatning suv to'plash sig'imiga ega joylarida ichimlik suvi zahiralarni tayyorlashda yoki tabiat yer osti kollektorlarida grunt suvlarini to'plashda foydalaniladi.

X.R.Toshev ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro viloyati hududi bo'yicha atmosfera yog'inlarining o'rtacha yillik miqdori 130 mm bo'lib, ularning o'rtacha ko'p yillik hajmi 5,2 mlrd m³ tashkil etadi. Bu To'dako'l suv ombori sig'imidan (1 mlrd m³) besh marta ortiq yoki Buxoro viloyatiga Amu-Buxoro mashina kanali orqali olinadigan yillik suv hajmidan (4,3-4,8 mlrd m³) ham ko'pdir [4]. Bu raqamlar bir tomondan, cho'llarda yog'inlarning yillik miqdori faqat Buxoro viloyatida mavjud sug'oriladigan yerlarga (274,6 ming ga, O'zbekistondagi ulushi 15,7%) sarflanadigan yillik suv hajmidan ko'proq ekanligini, boshqa tomondan mazkur imkoniyatlardan oqilona foydalanishning g'oyat dolzarbligini ko'rsatadi. X.R.Toshev cho'l-yaylov landshaftlarining yog'inlarga asoslangan suv imkoniyatlarini aniqlab, ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqanligi taqsimga sazavordir.

Atmosfera suvlarini to'plash va saqlashda qo'llaniladigan metodlar yetarli darajada xilma-xildir: cho'l taqirlarida yomg'ir suvlarini to'plash, past tog' cho'l havzalarida vaqtinchalik suv oqimlaridan foydalanish, quduqlar qazish, suvni uzoq vaqt saqlaydigan kichik sun'iy sig'imli sardobalarni qurish, korizlar tizimini barpo etish va ulardan foydalanish va boshqalar.

Eng so'nggi kashfiyotlar va ilmtalab texnologiyalar hozirgi kunda sodir bo'layotgan ekologiya inqilobining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Ularni cho'l zonasini o'zlashtirishda qo'llash katta yutuqlarga erishishga imkon beradi. Bunga mashhur ukrain olimi B.V. Bolochoyning [3] havodan suv olish texnologiyasini qo'llash asosida erishish mumkin. Olim tomonidan dunyoda hozirgacha ma'lum bo'lmagan xlorid va yodlashgan ko'rinishdagi modda, shuningdek, ON gidroksil guruhidan klaster olingan bo'lib, ular gidroksil guruhi chastotalarida rezonans (tebranma harakat) xossasiga ega bo'ladi va shu orqali havodan suv bug'ini to'playdi va uni suvga aylantiradi. Bug'ni to'plash bilan bir vaqtda issiqlik energiyasi ajralib chiqadi va u bilan uy-joyni (qishda) isitish mumkin. Bir kilogramm shunday modda bir sutkada bir tonna tozalangan suvni to'plashga imkon beradi. Bulardan shuni tushunish mumkinki, shunday mahsulotni (moddani) tayyorlash dunyoning har qanday nuqtasida suv muammolarini hal etadi, boshqa tomondan esa suv kabi qimmatli tovar ishlab chiqariladi, uni sotib kattagina daromad olish, ko'plab suv xo'jaligi muammolarini hal etish mumkin. Mazkur texnologiya 70 % hududi ekstremal qurg'oq cho'llardan iborat bo'lgan va suv taqchi O'zbekiston uchun g'oyat zarur. Bolochoy bug'lantirish usulida mavjud suvni chuchuklashtirishga nisbatan yuz martalab samarali yangi ishlanmalarni ham tavsiya etgan.

Umuman cho'l zonasini O'zbekiston geografik uchliligining muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil natijalari quyidagi xulosalarni berishga imkon beradi: 1) resurslarning cheklanganligi, inson yashashi va faoliyati sharoitining ekstremalligi (noqulayligi) sababli bu yerda hududlardan ekstensiv foydalanishga asoslangan yaylov chorvachiligi (qorako'lchilik) ustun turadi. Qisman foydali qazilmalarni qazib olishga asoslangan tog'-kon sanoati o'choqlari mavjud. Aholi doimiy yashaydigan punktlar juda kam;

2) cho'llardan foydalanish va ularni o'zlashtirishning mavjud yo'nalishlarida hududlar mahsuldorligini keskin oshirish imkoniyatlari cheklangan;

3) yaqin istiqbolda cho'l xo'jaligi o'zining mavjud yo'nalishini saqlab qoladi;

4) hudud salohiyatini oshirish ilmiy-texnik yutuqlarni keng qo'llash va mineral resurslarni o'zlashtirish sur'atlari bilan belgilanadi.

Cho'l hududlari integral resurs sifatida O'zbekiston yagona tabiat-ijtimoiy soha-iqtisodiyot makoni muhitining tom ma'noda o'ziga xos muhim *oltin fondi* va mamlakatning g'oyat katta boyligi va "ko'chmas mulki" hisoblanadi. Cho'l resurslaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish mazkur hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni tashkil etishda eng ko'p iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga erishish maqsadlarida ularni obyektiv mavjud tabiat va iqtisodiyot sharoitlari va resurslariga muvofiq va mos yo'nalishlarda amalga oshirish talab qilinadi. Bunda cho'l tabiatini asrash va muhofaza qilishga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Barcha holatlarda ichki kontinental cho'l kenglik zonalligi, cho'l iqlimi amaliyotda bartaraf etib bo'lmaydigan umumiy cheklov, doimiy ekanligi va ularga faqat moslashish zarurligini doimo hisobga olish zarur.

O'zbekistonning ichki kontinental cho'l geografik zonasidagi o'rni vaqt maboynda o'zgarmas omil bo'lib, bunda dengizlardan uzoqlik, dengiz va quruqlik transporti samaradorligining katta farqlari ta'siri kelgusida ham saqlanib qoladi, ularni yumshatish va kamaytirish iqtisodiy va umumiy geografik xususiyatdagi kompleks tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abbasov S.B. Qizilqum landshaftlari va ularning geoeologik jihatlar. G.f.d. diss.avtoref. Toshkent, 2007, 39 b.
2. Biologik xilma-xillikni saqlash. Milliy strategiya va harakat rejasi. Toshkent, 1998, 133 b.
3. Jumayev T.J. Bizning ulug'vor tog'larimiz. O'zbekiston tog' zonasining barqaror rivojlanishi. Nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent, 2021, 700 b.
4. Toshev X.R. Cho'l landshaftlari va ularning agroimkoniyatlaridan samarali foydalanish (Buxoro viloyati misolida). G.f.n. diss. Avtoref. Toshkent, 2008, 26 b.

AVSTRALIYA MATERIGI GEOGRAFIK O'RNI, O'RGANISH TARIXI, GEOLOGIK TUZILISHI VA FOYDALI QAZILMALARI VA RELYEFI

F.S. Meliboyeva¹, M.I. Raxmonaliyev²

Anotatsiya: Ushbu tezisda 7-sinflar uchun "Avstraliyaning geografik o'rni, o'rganish tarixi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari va relyefi" mavzusini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan, klaster metodi hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarni geografiya faniga shu jumladan mavzuni chuqurroq o'rganishga qiziqtirish yo'llari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar : Ko'rgazmali qurollar, Aqliy hujum, klaster metodi ,B.B.B jadvali.

«ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ, ГЕОЛОГИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ, ПОЛЕЗНЫЕ ИСКОПАЕМЫЕ И РЕЛЬЕФ МАТЕРИКОВОЙ ЧАСТИ АВСТРАЛИИ»

Аннотация: В данной дипломной работе для 7 класса тема «Географическое положение Австралии, история изучения, геологическое строение, минеральные ресурсы и рельеф» используется для преподавания предмета географии с использованием наглядных пособий, кластерного метода и современных технологий. чтобы заинтересовать студентов географией, включая информацию по теме.

¹ **Meliboyeva Feruzaxon Solijonovna** - QDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va IBA kafedrasida katta o'qituvchisi

² **Raxmonaliyev Muhammadali Ilhomjon o'g'li** - QDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va IBA ta'lim yo'nalishi talabasi